

GLOBALLASHUV VA MEDIA KONVERGENSIYASI SHAROITIDA SAYOHAT JURNALISTIKASINING MAMLAKAT IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

*O'zbekiston Jurnalistika Ommaviy kommunikatsiyalari Universiteti
"UNESKO" va ixtisoslashgan media kafedrası o'qituvchisi*

Raximjonova Nozima

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada sayohat jurnalistikasining zamonaviy ommaviy axborot tizimidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv va media konvergensiya sharoitida sayohat jurnalistikasi mamlakat imidjini shakllantirish, milliy brendni rivojlantirish hamda turizm salohiyatini oshirishda muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'layotgani asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida sayohat jurnalistikasining funksiyalari, janr tizimi, raqamli platformalar bilan integratsiyasi hamda xalqaro axborot makonidagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: sayohat jurnalistikasi, globallashuv, media konvergensiya, mamlakat imidji, turizm kommunikatsiyasi, raqamli OAV.

XXI asr globallashuv jarayonlari bilan xarakterlanib, axborot almashinuvi tezligi va miqyosining keskin ortishi bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan turizm va madaniyat sohasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, sayohat jurnalistikasi jurnalistikaning ixtisoslashgan va strategik ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi.

Sayohat jurnalistikasi nafaqat sayohatchilar uchun ma'lumot beruvchi manba, balki mamlakatlar, hududlar va xalqlar o'rtasida madaniy muloqotni rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Aynan shu jihati bilan u mamlakat imidjini shakllantirish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Ilmiy adabiyotlarda sayohat jurnalistikasi jurnalistikaning alohida ixtisoslashgan sohasi sifatida talqin qilinadi. Uning markazida safar davomida olingan faktlar, kuzatuvlar, madaniy va ijtimoiy muhit tasviri yotadi. Sayohat jurnalistikasi auditoriyada muayyan hudud yoki mamlakat haqidagi tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sayohat jurnalistikasining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Axborot funksiyasi – geografik, tarixiy va madaniy ma'lumotlarni yetkazish;

Madaniy-ma'rifiy funksiya – milliy qadriyat va an'analarni targ'ib etish;

Kommunikativ funksiya – turli madaniyatlar o'rtasida muloqotni mustahkamlash;

Imidj yaratish funksiyasi – mamlakat va hududlarning ijobiy qiyofasini shakllantirish.

Media konvergensiya jarayoni jurnalistikaning barcha yo'nalishlari qatori sayohat jurnalistikasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. An'anaviy bosma va efir OAV bilan bir qatorda bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, videoplatformalar faol rivojlandi.

Raqamli sayohat jurnalistikasi quyidagi xususiyatlarga ega:

tezkorlik;

vizuallik (foto va video kontent);

interaktivlik;

keng auditoriya qamrovi.

Bu holat auditoriyaning axborotni qabul qilish jarayonini osonlashtirib, turistik qarorlar qabul qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat imidji xalqaro axborot makonida yaratiladi va ommaviy axborot vositalari orqali mustahkamlanadi. Sayohat jurnalistikasi orqali berilayotgan sifatli materiallar mamlakatning madaniy merosi, tabiiy boyliklari, turistik infratuzilmasi va ijtimoiy muhitini ijobiy talqin etishga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda, jumladan UNWTO hisobotlarida ham ommaviy axborot vositalari va turizm rivoji o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. Shu sababli sayohat jurnalistikasi bugungi kunda "yumshoq kuch" (soft power) vositalaridan biri sifatida baholanmoqda. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashtirish va media konvergensiya sharoitida sayohat jurnalistikasi mamlakat imidjini shakllantirishda muhim strategik ahamiyatga ega. Raqamli platformalardan samarali foydalanish, professional va mas'uliyatli jurnalistika tamoyillariga amal qilish ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Sayohat jurnalistikasini media tadqiqotlarning mustaqil va istiqbolli yo'nalishi sifatida chuqur o'rganish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. McQuail D. Mass Communication Theory. — London: Sage Publications.
2. Urry J. The Tourist Gaze. — London: Sage.
3. Hall C.M., Page S. Tourism Studies. — Routledge.
4. UNWTO. Tourism and Media Reports.
5. O'zbekiston Respublikasi turizm va OAV sohasiga oid ilmiy maqolalar.